Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minl...

2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi tasdiqlangan.[7]

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, yashil tadbirkorlik bugungi global iqtisodiyotning ajralmas qismi bo‘lib, ekologik barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishni uyg‘unlashtirishga xizmat qilmoqda. Yurtimizda olib borilayotgan bu kabi, islohotlar va ularning ahamiyati biz uchun juda, ham muhim hisoblanadi. Negaki, mamlakatimizni asrab-avaylashimiz, har tomonlama vatanimiz ravnaqiga hissa qo’shishimiz bizning, ham farzimiz, ham burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sustainable Event Alliance (SEA) - "Green Event Guidelines" (2019).
2. BMT Atrof-muhit dasturi (UNEP). (2023). Green Economy Progress Measurement Framework. Retrieved from: https://www.unep.org .
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019). “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi”. Toshkent.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son.12.02.2022.
5.Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish sohasi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar: https://www.imv.uz/media/prior/Yashil.pdf .
6. O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar https://lex.uz/docs/-6303230 .
7.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-oktabrdagi PQ-4477-son qarori bilan 2019 — 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi .

ASOSIY MAKROIQTISODIY KO’RSATKICHLAR

Saydakbarova Madinaxon Anisbekovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Andijon fakulteti katta o’qtuvchisi
Ahrorqulov Jonibek Otabek o’g’li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Andijon fakulteti “Soliqlar va soliqqa tortish” yo’nalishi 2-bosqich talabasi
ahrorqulovjonibek1@gmail.com

Published: 24.05.2025
Cite this article: Saydakbarova Madinaxon Anisbekovna, Ahrorqulov Jonibek Otabek o’g’li (2025). Asosiy makroiqtisodiy ko’rsatkichlar. Emro Science and Education, 2(1). https://journal.emro.uz/public/maqola/310
© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Annotatsiya: *Maqolada asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar makroiqtisodiyotning muhim elementlarini yoritiladi. Shu bilan birgalikda yalpi ichki mahsulot (YIM), ishsizlik darajasi, inflyatsiya, investitsiya va eksport-import balansi kabi ko‘rsatkichlar tahlil qilinadi. Ushbu maqolada har bir ko‘rsatkichning iqtisodiyot rivojlanishidagi o‘rni va ularning o‘zaro bog‘liqligi muhokama qilinadi.*

Kalit so’zlar*: Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, yalpi ichki mahsulot (YIM), inflyatsiya, ishsizlik darajasi, investitsiya, eksport-import balansi, iqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy siyosat.*

Abstract: *The main macroeconomic indicators in the article highlight the important elements of macroeconomics. At the same time, indicators such as gross domestic product (GDP), unemployment rate, inflation, investment and export-import balance are analyzed. This article discusses the role of each indicator in the development of the economy and their interdependence.*

Key words: *Macroeconomic indicators, gross domestic product (GDP), inflation, unemployment rate, investment, export-import balance, economic stability, economic policy.*

Аннотация: *Основные макроэкономические показатели в статье освещают важные элементы макроэкономики. При этом анализируются такие показатели, как валовой внутренний продукт (ВВП), уровень безработицы, инфляция, инвестиции и баланс экспорта-импорта. В данной статье рассматривается роль каждого показателя в развитии экономики и их взаимозависимость.*

Ключевые слова: *Макроэкономические показатели, валовой внутренний продукт (ВВП), инфляция, уровень безработицы, инвестиции, экспортно-импортный баланс, экономическая стабильность, экономическая политика.*

Globallashuv jarayoni shiddat bilan o’sib borar ekan, har qanday makroiqtisodiyotda, ham turli muammolar va kamchiliklar ko’zga ko’rinmasdan qolmaydi. Bu muammo va masalalar asosiy makroiqtisodiy ko’rsatkichlar bilan ya’ni, yalpi ichki mahsulot (YIM), yalpi milliy mahsulot (YMM), ishsizlik darajasi, inflyatsiya, investitsiya va eksport-import balansi kabi ko‘rsatkichlar orqali tahlil qilinadi va yechimlar topiladi.

Muayyan mamlakat iqtisodiy ahvolini ko’rsatuvchi holatini ifoda etuvchi ko’rsatkichlar makroiqtisodiy ko’rsatkichlar deb yuritiladi. Makroiqtisodiy ko’rsatkichlar miqdor va sifat ko’rsatkichlariga guruhlanadi. Makroiqtisodiy miqdor ko’rsatkichlariga quyidagi ko’rsatkichlar kiradi: Yalpi ichki mahsulot (YaIM), sof ichki mahsulot (SIM), milliy daromad (SHD),ixtiyoriy daromad (ID) va boshqalar . Milliy

daromad -ijtimoiy sug’urta ajratmasi - Korxona foydasiga soliqlar -Korxonaning taqsimlanmaydigan foydasi + Ijtimoiy to’lovlar = Shaxsiy daromad(SHD). Foydalanilgan milliy daromad bu ishlab chiqarilgan milliy daromaddan har xil yo’qotishlar (tabiiy ofatlar ,mahsulotlarni zaxirada saqlashdagi yo’qotishlar va h.k.)va tashqi savdo qoldig’i chiqarib tashlangan miqdorga teng.

Mavzuni tahlil qilish, va asosiy makroiqtisodiy ko’rsatkichlar haqida, bir qator nazariy ma’lumotlar bilan yaqindan tanishib chiqsak maqsadga muvofiq bo’ladi.

YaIM – ma’lum bir davrda, odatda yillik yoki har chorakda bir mamlakat chegaralarida ishlab chiqarilgan barcha tovarlar va xizmatlarning umumiy pul qiymati. YaIM ham mamlakat ichida, ham mamlakatdan tashqarida xalqaro miqyosda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini qamrab oladi. YaIM mamlakatning iqtisodiy ko’rsatkichlari va o’sish yo’nalishini baholashning asosiy ko’rsatkichidir. YaIM turli mamlakatlarning iqtisodiy natijalarini taqqoslash va ishlab chiqarish darajasining vaqt o’tishi bilan o’zgarishini baholash uchun mezon bo’lib xizmat qiladi. Boshqacha qilib aytadigan bo’lsak, YaIM mamlakatning iqtisodiy manzarasini ko’rsatadi, iqtisodiyot hajmi va o’sish sur’atlarini baholash uchun foydalaniladi.

YaIM, ham o’z o’rnida ikkiga bo’linadi: **Nominal** va **Real** YaIM.

Nominal Yalpi ichki mahsulot esa mamlakatlar o‘rtasidagi narxlar darajasidagi farqlarni hisobga olmagan holda, joriy bozor narxlari va valyuta kurslari yordamida mamlakatning iqtisodiy mahsulotini o‘lchaydi. U mamlakat chegaralarida ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarning milliy valyutada ifodalangan umumiy qiymatini anglatadi. Nominal YaIMni hisoblash oson va mamlakatning iqtisodiy ko’rsatkichlari to’g’risida mutlaq ma’noda tezkor tasavvur beradi. Biroq, har xil narxlar darajasiga ega mamlakatlarni solishtirganda, u haqiqiy iqtisodiy hajmni yoki turmush darajasini to’g’ri aks ettirmasligi mumkin.

Real Yalpi ichki mahsulot – bu aniq bir yil narxlarida hisoblangan tovarlar va xizmatlar tannarxi bo’lib, u nominal YaIMdan inflyatsiya/deflyatsiyani chiqarib tashlash va turli yillardagi real ishlab chiqarish hajmlarini solishtirish imkonini beradi. Real YaIM joriy yil va bazaviy yil o’rtasidagi narxlarning farqi bo’lgan YaIM narxlari deflyatori yordamida hisoblanadi. Misol uchun, agar narxlar bazaviy yilga nisbatan 5% ga oshgan bo’lsa, deflyator 1,05 ni tashkil qiladi. Nominal YaIM ushbu deflyatorga bo’linadi, bu esa real YaIMni beradi. Nominal YaIM odatda real YaIMdan yuqori, chunki inflyatsiya odatda ijobiy raqamdir. Real YaIM bozor qiymatining o’zgarishini hisobga oladi va shu bilan ishlab chiqarish stavkalari o’rtasidagi farqlarni yildan-yilga qisqartiradi. Agar mamlakatning real yalpi ichki mahsuloti va nominal YaIM o‘rtasida

katta tafovut bo‘lsa, bu uning iqtisodiyotida sezilarli inflyatsiya yoki deflyatsiya ko‘rsatkichi bo‘lishi mumkin.

Yana bir asosiy makroiqtisodiy ko’rsatkichlardan biri, Yalpi milliy mahsulot, ham iqtisodiyotda muhim rol o’ynaydi:

Yalpi milliy mahsulot (YaMM) esa, joylashgan joyidan qat’i nazar, mamlakat rezidentlari tomonidan ishlab chiqarilgan barcha yakuniy mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymatini o’lchaydi. Mamlakat chegaralarida ishlab chiqarishga yo’naltirilgan YaIMdan farqli o’laroq, YaMMga mamlakat fuqarolari va kompaniyalari tomonidan chet elda ishlab chiqarilgan va olingan daromadlar kiradi, bu mamlakatda xorijiy rezidentlar tomonidan ishlab chiqarilgan daromadlar bundan mustasno. YaMM iqtisodiy faoliyat qayerda sodir bo’lishidan qat’i nazar, mamlakatning iqtisodiy ko’rsatkichlari haqida o’z fuqarolari nuqtai nazaridan tushuncha beradi.[4] Yalpi milliy daromad (YaMD) kengroq ko’rsatkich bo’lib, yalpi ichki mahsulot va xorijdan olingan sof daromadni qamrab oladi. Yalpi milliy daromad mamlakat rezidentlari tomonidan ichki yoki chet elda olingan jami daromadni o’z ichiga oladi va chet el rezidentlari tomonidan mamlakat ichidagi har qanday daromadni olib tashlaydi. Yalpi milliy daromad milliy daromadning har tomonlama ko’rinishini ta’minlab, mamlakat fuqarolariga to’g’ri keladigan jami iqtisodiy mahsulot hajmini aks ettiradi. Makroiqtisodiyotning rivojlanishi va barqarorligini ta’minlash uchun asosiy ko‘rsatkichlarni muntazam kuzatish va tahlil qilish zarur. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti uchun muhim bo‘lgan asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar — yalpi ichki mahsulot (YIM), inflyatsiya, ishsizlik darajasi, investitsiyalar, eksport-import balansi va iqtisodiy barqarorlik masalalari muhokama qilinadi.

Ta’kidlanishicha, jahondagi qiyin vaziyatga qaramasdan, ichki imkoniyatlarni ishga solish hisobiga, o‘tgan 2024 yilda 6,5 foizga o‘sib, yalpi ichki mahsulot hajmi 1 kvadrillion 454 trln so‘m yoki 114,9 mlrd dollarni tashkil etdi. Aholi jon boshiga YaIM 39,1 mln so‘m yoki 3093 dollarga yetdi. O‘tgan yilda aholi jon boshiga hisoblangan YaIM hajmi joriy narxlarda 39 mln 131 ming so‘mni yoki 3 092,7 AQSh dollarini tashkil etgan. 2024 yilda aholi jon boshiga YaIM hajmining real o‘sishi 2023 yilga nisbatan 4,4 foiz, 2020 yilga nisbatan esa 19,5 foiz bo‘lgan.

Aholining milliy valyutadagi depozitlari 50 foiz o‘sdi. “Yig‘ilishda iqtisodiyot va investitsiya sohasidagi asosiy vazifalar muhokama qilindi. Asosiy soliq stavkalari o‘zgarishsiz qolayotgan holatda budjet daromadlarini ko‘paytirishning birdan bir yo‘li – soliq ma’murchiligini takomillashtirish”, – ekani qayd etildi. Shu bilan birgalikda, davlat rahbari bu tadbirkorlar faoliyatiga aralashish orqali emas, balki raqamlashtirish, sun’iy intellekt va yashirin iqtisodiyotni “soya”dan chiqarish hisobiga bo‘lishi


kerakligini ta’kidladi. Xalqaro moliya tashkilotlari va boshqa hamkorlardan jalb etilgan imtiyozli mablag‘larning samaradorligi masalasiga alohida e’tibor qaratildi.[6]

Bu yilda, ham yalpi ichki mahsulot o‘sishini saqlab qolish uchun barcha imkoniyat borligi qayd etildi. Buning uchun rejalashtirilgan loyihalarni o‘z vaqtida ishga tushirish, transport-logistika, axborot texnologiyalari, agro va moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish talab etiladi. Imtiyozlarning samaradorligini ko‘rib chiqish va yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo‘yicha topshiriqlar berildi. Hamda, yig‘ilishda bildirilgan fikrlar asosida 2025-yilgi Davlat budjeti loyihasining asosiy yo‘nalishlari belgilab olindi. Qonunchilikka muvofiq, bu loyiha va uning ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari mahalliy Kengashlarda muhokama qilinadi hamda yakunda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritiladi.



1-rasm (Stat.uz)

YIM mamlakat iqtisodiyotining umumiy holatini aks ettiruvchi eng muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston uchun 2025-yilgi YIM o‘sish sur’ati 5,6-5,8 foiz darajasida prognoz qilindi. Joriy yilning dastlabki 3 oyida iste’mol narxlar indeksi 102.1%ga yetdi. Bu o‘sishga 2024-yilga nisbatan 0,4%ga oshganligini ko’rishimiz mumkin.



2-rasm.(Stat.uz)

2025-yilning joriy 3 oyligida. Sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi 2024-yilga nisbatan o’zgarishsiz qolganinini 3-rasmda ko’rishimiz mumkin. Transport sohasida, yo’lovchilar aylanmasi 2024-yilga nisbatan 0.7% ga kamayganligini ko’rishimiz mumkin. Yuk aylanmasi, ham o’tgan yilga nisbatan 4.2%ga kamayib 102.0%ga tushib ketgan. Qurilish sohasida, ham qurilish hajmi 2024-yilga nisbatan 4%ga o’sib 110,8% ga yetgan. Bozor xizmatlari hajmi esa 1,6% ga kamauishi bilan birgalikda, tashqi savdo aylanmasi 1,6%ga o’sganligini ko’rishimiz mumkin. Bunda, import hajmi, ham export hajmi, ham o’tgan yilga nisbatan o’sganligi va O’zbekiston Respublikasi Iqtisodiyoti o’sayotganligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, makroiqtisodiy ko’rsatkichlar mamlakatlar iqtisodiyotni barqaror bo’lishligini ta’minlashga xizmat qiladi. O‘zbekiston iqtisodiyoti 2024-yil davomida barqaror o‘sish sur’atlarini namoyon qilganligi va 2025-yilda, ham barqaror o’sib boradi, desak mubolag’a bo’lmaydi. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar ijobiy samara bermoqda. Bu esa nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga, balki xalq farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Makroiqtisodiy ko’rsatkichlar YaIM https://invexi.org/uz/press/
2. Asosiy makroiqtisodiy ko’rsatkichlar Nominal https://invexi.org/uz/press/
3. . Asosiy makroiqtisodiy ko’rsatkichlar Real https://invexi.org/uz/press/
4 . Asosiy makroiqtisodiy ko’rsatkichlar (YaMM) https://invexi.org/uz/press/
5. . Asosiy makroiqtisodiy ko’rsatkichlar (YaMD) https://invexi.org/uz/press/
6. O’zbekiston Respublikasi matbuot xizmati Oliy majlis yig’ilishi va makroiqtisodiy tahlillari 2024-yil. https://president.uz/oz/lists/view/7621.

7.https://oz.sputniknews.uz/20241018/mirziyoev-2025-yil-makroiqtisodiy-korsatkichlar-46186667.html
8. O’zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Statistika agentligi https://stat.uz/uz/
9. O’zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Statistika agentligi https://stat.uz/uz/

IQTISODIY DAVRLAR: TSIKLLAR, SABABLARI VA OQIBATLARI

Saydakbarova Madinaxon Anisbekovna
TDIU Andijon fakulteti o’qituvchisi
Miraxmatova Arofatxon Muhtorjon qizi
TDIU Andijon fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada biz iqtisodiy davrlar — ya’ni iqtisodiyotda muntazam takrorlanib turadigan ko‘tarilish va pasayish bosqichlari mohiyatini tahlil qildik. Iqtisodiy tsiklning asosiy bosqichlari bo‘lmish ko‘tarilish, inqiroz, cho‘kish va tiklanish jarayonlari misollar asosida yoritildi. Har bir bosqichning iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’siri, bandlik darajasi va ishlab chiqarish hajmidagi o‘zgarishlar tahlil qilindi. Maqolada iqtisodiy davrlarning yuzaga kelishiga olib keluvchi omillar, jumladan, talab va taklifdagi nomutanosiblik, investitsiyalardagi o‘zgarishlar, kredit siyosati va tashqi iqtisodiy muhit kabi omillar alohida ko‘rib chiqildi. Tarixiy jihatdan muhim bo‘lgan Buyuk depressiya va 2008 yilgi moliyaviy inqiroz misolida tsikllarning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari ko‘rsatildi. Shuningdek, O‘zbekiston iqtisodiyotida kuzatilgan ayrim iqtisodiy holatlar ham tahlil qilinib, davlat tomonidan ko‘rilgan choralar yoritildi. Xulosa sifatida, iqtisodiy tsikllarni chuqur anglash va samarali boshqaruv choralarini qo‘llash orqali barqaror rivojlanishga erishish imkoniyati mavjudligi ta’kidlandi.

Kalit so‘zlar Iqtisodiy davrlar, iqtisodiy tsikl, ko‘tarilish, cho‘kish, inqiroz, tiklanish, eksternal omillar, iqtisodiy ko‘rsatkichlar, bandlik darajasi, investitsiya faoliyati, kredit siyosati, talab va taklif, iqtisodiy beqarorlik, global moliyaviy inqiroz, buyuk depressiya, o‘zbekiston iqtisodiyoti, davlat siyosati, barqaror rivojlanish, fiskal siyosat, monetar siyosat.

Аннотация: В данной статье мы проанализировали экономические циклы, то есть регулярные колебания в экономике, выражающиеся в фазах роста и спада. Основные этапы экономического цикла, такие как подъем, кризис, спад и восстановление, были рассмотрены с примерами. Описано влияние каждого этапа на экономические показатели, уровень занятости и объем производства.